

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

YO‘LDOSHEVA MAMURA BAXTIYAROVNA

**BADIIY TARJIMADA PORTRET TASVIRLOVCHI TIL
BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY VA LINGVOSTILISTIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Contents of Dissertation

Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Yo'ldosheva Mamura Baxtiyarovna

Badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarining lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlari3

Мамура Бахтияровна Йулдошева

Лингвокультурологические и лингвостилистические характеристики портретно-описывающих языковых единиц в художественном переводе ... 31

Yuldosheva Mamura Bakhtiyarovna

Linguistic-Cultural and Linguistic-Stylistic Characteristics of Portrait-Describing Language Units in Literary Translation 61

E'lon qilingan ishlar ro'yxati.

Список опубликованных работ.

List of published works 65

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

YO‘LDOSHEVA MAMURA BAXTIYAROVNA

**BADIIY TARJIMADA PORTRET TASVIRLOVCHI TIL
BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY VA LINGVOSTILISTIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2106 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash web-sahifasining www.uzswlu.uz hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yo'ldoshev Ulug'bek Ravshanbekovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sodiqov Zohid Yaqubjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Askarova Shahnoza Kamoliddinovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12. 2019. Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "30" oktyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G9-A mavzesi 21-uy. tel: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; email: uzswlu_info@mail.ru

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1156 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G9-A mavzesi 21-uy. tel: (99871) 230-12-91. faks (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "14" oktyabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "14" oktyabr da "31" raqamli reestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

X.B. Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Insoniyat globallashtirish davrida jahon xalqlari adabiyotining turli tillarga tarjima qilinishi, shu orqali o'sha xalqlarning tillari va madaniyati borasida axborot almashinuvi sodir bo'ladi. Bu kabi axborotlarni o'zga xalq o'quvchilariga yetkazishda badiiy tarjima katta ahamiyatga ega. Badiiy tarjima orqali badiiy adabiyotda mujassam bo'ladigan xalqlarning madaniyati, an'ana va qadriyatlari, turmush tarzi, ularning xarakteri va boshqa jihatlar xorijiy til o'quvchilariga yetkaziladi.

Badiiy adabiyot o'quvchida o'ziga xos badiiy-estetik zavq bag'ishlovchi, turli xil tasviriy vositalarning qo'llanishi orqali o'quvchini o'ziga jalb etuvchi ijodiy jarayondir. Badiiy asar qahramonlarining portret chizgilari va ichki kechinmalari hamda ularni ifodalashda qo'llanuvchi til birliklarini badiiy tarjimada qayta yaratishning lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlarini aniqlash, bu kabi til birliklarini xorijiy tilga o'girishda qo'llanadigan tarjima uslub va usullarini keng tadqiq etish, inson tashqi qiyofasini badiiy matnda tasvirlashning milliy-madaniy xususiyatlari va ularni badiiy tarjimada aks etishi masalalari bugungi tarjimashunoslik sohasida tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda badiiy tarjima ham tarjimaning boshqa sohalari qatori keng rivojlanib bormoqda. Yurtimizda mustaqillikkacha bo'lgan davrlarda jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga yoki o'zbek adabiyoti durdonalari xorijiy tillarga bilvosita tarjima orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda bu kabi badiiy tarjima faoliyatlariga bevosita tarjima orqali yondashilmoqda. Keyingi yillarda o'zbek adabiyotining sara namunalari (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon", Oybekning "Navoiy", Cho'lponning "Kecha va kunduz") ingliz va boshqa tillarga mahalliy va xorijlik tajribali tarjimonlar tomonidan o'girildi. Bu esa mamlakatimizda asliyat va tarjima matnlarini o'zaro chog'ishtirish orqali tarjimashunoslikning dolzarb masalalari, jumladan, tarjimaning sintaktik, leksik-semantik, stilistik, lingvokulturologik, pragmatik, kognitiv jihatlar borasida keng monografik tadqiqot ishlarini amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 3775-sonli qarori, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Prezident farmoni, 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Prezident farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tarjimashunosligida Y.Nayda, I.Graam, R.Bell, P.Nyumark, S.Basnet, K.Malmker va V.Kevin ¹ kabi olimlar tarjima nazariyasi borasida tadqiqotlar olib borgan va turli qo‘llanmalar yaratgan. Bu tarjimashunos olimlar tarjima qonuniyatlari, ekvivalentlik va adekvatlik nazariyalari, og‘zaki va yozma tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik masalalari kabi tarjimaning muhim aspektlarini o‘z ishlarida keng yoritib bergan.

Rossiya olimlari ham tarjimashunoslik sohasida bir qancha tadqiqot ishlari olib borishgan. Jumladan, L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, V.V.Vinogradov, A.D.Shveyser, N.Garbovskiy, Y.Ilyushkina² va boshqalar tarjimaning umumleksikologik muammolari, tarjimada ekvivalentlik, tarjimada frazeologik birliklar va kontekst masalasi, emotsional-ekspressivlikni ifodalash va tarjimada milliy-madaniy xususiyatga ega so‘zlarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Badiiy tarjimaning lingvistik va ekstralingvistik muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yurtimiz va xorij olimlari tomonidan olib borilgan. Mamlakatimizda badiiy matndagi tasviriy vositalar, stilistik sinonimlar, frazeologik birliklarning berilishi, olam milliy manzarasining milliy-madaniy xususiyatlari, badiiy tarjimaning lingvokulturologik va lingvostilistik xususiyatlariga oid tadqiqotlar N.Komilov, M.Xolbekov, Q.Musayev, R.Shirinova, I.To‘xtasinov, G.Odilova, D.Xoshimova, A.Sharipova, Z.Teshaboyeva, N.To‘xtaxo‘jayeva, U.Yo‘ldoshevlarning ishlarida amalga oshirilgan³.

1 Nida E. *Towards a Science of Translating*. – Leiden, 1964. – 331 p.; Graham I. *Difference in Translation*. – Carnell University Press, 1985. – 256 p.; Roger.N.Bell. *Translation and Translating, (Theory and Practice)*. – London, New York, 2001. – 80 p.; Newmark P. *A Textbook of Translation*. – London, 2002. – 292 p.; Susan Bassnet. *Translation studies*. 3rd edition. – London and New York: Taylor & Francis e-Library, 2005. – 176 p.; Malmker Kristen and Kevin Windle. *The Oxford Handbook of Translation Studies*. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 256 p.

2 Бархударов Л.С. *Общелингвистическое значение теории перевода // Теория и критика перевода*. – М.: Изд-во ЛГУ, 1962.; *Язык и перевод*. – М.: ИМО, 1975. – С. 196.; Комиссаров В.Н. *Слово о переводе*. – М.: ИМО, 1973. – С. 215.; *Лингвистика перевода*. – М.: ИМО, 1980 – С. 167.; *Общая теория перевода*. – М., 2003. – С. 136.; *Современное переводоведение*. – М., 2004. – С. 424.; *Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы*. – М.: Изд-во МГУ, 1978. – С.174.; *Перевод: Общие и лексические вопросы*. – М.: Книжные дом, Университет, 2006. – С. 236.; Швейцер А.Д. *Теория перевода: статус, проблемы, аспекты*. – М.: Наука, 1988. – 250 с.; *Гарбовский Н. Теория перевода*. – М., 2004. – 554 с.; *Илюшкина М.Ю. Теория перевода: основные понятия и проблемы*. – Екатеринбург, 2015. – 84 с.

³ Мусаев Қ. *Стилистические вопросы художественного перевода с английского языка на узбекский*. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967. – 25 с.; Sirojiddinov Sh., Odilova G. *Бадий таржима асослари*.

Biroq badiiy matnda inson tashqi qiyofasini tasvirlovchi til birliklar tarjimasining lingvokulturologik va lingvostilistik xususiyatlari, ularni badiiy tarjima qilish usullari, portret tasvirida qoʻllanadigan stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalari borasida tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar oʻrtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari» bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi badiiy tarjimada portret tasvirlovchi birliklarni qayta yaratishning lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– badiiy tarjimaning nazariy asoslari, lingvostilistik va lingvomadaniy xususiyatlari, portret tasvirlovchi birliklarning ingliz va oʻzbek tillaridagi izomorfik va allomorfik xususiyatlarini oʻrganish;

– A.Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanining ingliz tiliga I.Tuxtasinov hamda M.Riz tarjimalarining tahlili asosida badiiy tarjimada portret komponentlarini ifodalovchi til birliklarini qayta ifodalash masalasini tadqiq etish;

– asardagi qahramon portretining tashqi va ichki qiyofasi, xarakterini tasvirlovchi lisoniy birliklardagi milliy-madaniy xususiyatlarni badiiy tarjimada qayta ifodalash muammolariga yechim topish;

– badiiy tarjimada portret tasvirlashning milliy-madaniy, lingvostilistik taʼsirini qayta ifodalanishni tahlil qilish orqali oʻziga xos muammolar va ularni bartaraf etish usullarini yoritib berish;

– badiiy tarjimada portret tasvirining struktur, stilistik va milliy-madaniy taʼsirini qayta ifodalanish xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqish;

– badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy va lingvostilistik taʼsirini qayta ifodalanish xususiyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida A.Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanidagi portret tasvirlovchi til birliklar va ularning ingliz tiliga tarjimalari olingan.

Tadqiqotning predmeti badiiy matnda portret tasvirlovchi til birliklar tarjimasining lingvostilistik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tipologik, komponent, tasnifiy, struktur-semantik, transformatsion hamda kros-madaniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Монография. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.; Хошимова Д. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Филол. фан...док (DSc) дисс. автореф. –Тошкент, 2018. – 74 б.; Шарипова А. Стилистик синонимлар таржимасининг лингвокультуроологик хусусиятлари. Филол. фан док. (PhD) дисс... . автореф. – Тошкент, 2017. - 22 б.; Ширинова Р. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши. Филол. фан. док. ... дисс... . автореф. – Тошкент, 2017. – 26 б.; Тешабоева З. «Бобурнома»нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Филол. фан. док. дисс... . автореф.. – Тошкент, 2017. – 20 б.; Йўлдошев У. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилстик ва лингвокультуроологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латиғалари мисолида). Филол. фан. док. дисс... . автореф.. – Тошкент, 2017. – В.17.

Portret qismlari – insonning yuzi, ko‘zi, qoshi, sochi, terisi va rangi, gavdasi, soqolini ifodalovchi til birliklarining ingliz va o‘zbek tillaridagi izomorfik, allomorfik xususiyatlari aniqlanib, asar qahramonlarining statik portreti hisoblangan yuz, soch, qosh, soqol kabilarning xususiyatlarini aks ettiruvchi lisoniy vositalar tarjimasida nomutanosibliklar mavjud bo‘lsa, qahramonlarning yosh, gavda, ko‘z, teri xususiyatlarini bildiruvchi til birliklari asliyatga muvofiq ifodalanishi isbotlangan;

Portretni tasvirlovchi lisoniy birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari turli leksik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, ularning badiiy tarjimadagi ta’sirini madaniy, dinamik, funksional, shakliy ekvivalentlik hamda kalkalash usullari orqali qayta yaratish mexanizmi dalillangan;

“O‘tkan kunlar” romanida portret tasvirlovchi til birliklarida metafora, o‘xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag‘a kabi stilistik vositalar faol qo‘llanganligi va ulardagi stilistik bo‘yoqdorlikni badiiy tarjimada qayta ifodalashda stilistik vositalarning nafaqat lingvistik, balki milliy-madaniy xususiyatlari ham e’tiborga olinishi asoslangan;

Portret tavsirlovchi lisoniy vositalar murakkab sintaktik birliklarning joylashish tartibi ingliz va o‘zbek tillarida o‘zaro allomorfik xususiyat kasb etib, sifatllovchi murakkab sintaktik birikmalar ingliz tilida hajmi+yoshi+shakli+rangi+kelib chiqishi+ishlatish sababi+ot ko‘rinishiga, o‘zbek tilida rang+bo‘yi+hajm+yosh+maza-ta’m+psixologik xususiyatlar+ot strukturasi ga egaligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badiiy tarjimada portret tasvirlovchi lisoniy vositalarni qayta ifodalashning lingvomadaniy va lingvostilistik aspektlarini tadqiq etish orqali ushbu lisoniy birliklarning ingliz va o‘zbek tillaridagi izomorfik va allomorfik xususiyatlari aniqlandi;

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga ikki xil tarjima variantlarini tahlil qilish orqali badiiy tarjimada yuzaga keladigan lingvistik muammolar tipologiyasi va ushbu muammolarning yechimi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;

“O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga ikki xil tarjima variantlarini tahlil qilish orqali portret tasvirlovchi lisoniy birliklarining badiiy tarjimadagi ta’sirini saqlab qolishda qo‘llanadigan tarjima usullari va strategiyalari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, qiyoslash kabi usullar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, badiiy tarjimada portret tasvirlovchi lisoniy vositalarning badiiy tarjimada lingvomadaniy va lingvostilistik ta’sirini saqlab qolishga leksik va sintaktik birliklarni tarjima qilish usullari va stilistik vositalarni tarjima qilish staretgiyalari asosida yondashilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy tarjimaning lingvistik, milliy-madaniy, stilistik aspektlari

bo'yicha amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar, magistrlik dissertatsiyalarni tayyorlashda, shuningdek tarjimada qo'llanadigan tarjima usullari va badiiy tasviriy vositalarni tarjima qilish staretegiyalarini ilmiy tadqiq qilish, tarjimashunoslik, tarjima didaktikasiga doir ilmiy-nazariy qarashlarni yangi ma'lumotlar asosida boyitishi bilan belgilanadi, xususan, badiiy tarjima matnlarining ilmiy va amaliy ahamiyati hamda ularning ko'rsatkichlarini belgilashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga doir turli metodik tavsiyanomalar tuzish va badiiy tarjimaga doir darsliklar tayyorlashda mazkur tadqiqot natijalaridan, chiqarilgan ilmiy xulosalardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tarjimon tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Amaliy tarjima", "Badiiy tarjima mahorati", "Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish", "Yozma tarjima", "Qiyosiy tipologiya" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarining lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqot asosida:

Portret qismlari – insonning yuzi, ko'zi, qoshi, sochi, terisi va rangi, gavdasi, soqolini ifodalovchi til birliklarining ingliz va o'zbek tillaridagi izomorfik, allomorfik xususiyatlari aniqlanib, asar qahramonlarining statik portreti hisoblangan yuz, soch, qosh, soqol kabilarning xususiyatlarini aks ettiruvchi lisoniy vositalar nomutanosibliklar mavjud bo'lsa, qahramonlarning yosh, gavda, ko'z, teri xususiyatlarini bildiruvchi til birliklari asliyatga muvofiq ifodalanishi isbotlangani borasidagi xulosalardan Yevrora Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida Latviyaning Rezekna texnologiyalari Akademiyasi, Angliyaning London Metropoliten universiteti bilan hamkorlikda bajarilgan "561624-ERR-1-1UK-ERRKA2-SBHE-SR IMER" nomli xalqaro loyihada foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-noyabrdagi 06/598-son ma'lumotnomasi). Natijada xalqaro loyiha doirasida tarjimashunoslik sohasidagi o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha yaratilgan o'quv-qo'llanma va dasturlarning takomillashuviga xizmat qilgan;

Portretni tasvirlovchi lisoniy birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari turli leksik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi, ularning badiiy tarjimadagi ta'sirini madaniy, dinamik, funksional, shakliy ekvivalentlik hamda kalkalash usullari orqali qayta yaratish mexanizmi dalillanganiga oid ilmiy-nazariy yondashuvlardan Yevrora Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-YeRR-1-2017-1-YeS-YeRRKA2-SBHE-JR SLASS: "Computational Linguistics at Sentral Asian universities" mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 10-oktyabrdagi 723/02-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalari loyihaning modullar kontentini mukammallashtirish va boyitilishiga ijobiy hissa qo'shgan;

"O'tkan kunlar" romanida portret tasvirlovchi til birliklarida metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalar faol

qo‘llanganligi va ulardagi stilistik bo‘yoqdorlikni badiiy tarjimada qayta ifodalashda stilistik vositalarning nafaqat lingvistik, balki milliy-madaniy xususiyatlari ham e‘tiborga olinishi, portret tavsirlovchi lisoniy vositalar murakkab sintaktik birliklarning joylashish tartibi ingliz va o‘zbek tillarida o‘zaro allomorfik xususiyat kasb etib, sifatlovchi murakkab sintaktik birikmalar ingliz tilida hajmi+yoshi+shakli+rangi+kelib chiqishi+ishlatish sababi+ot ko‘rinishiga, o‘zbek tilida rang+bo‘yi+hajm+yosh+maza-ta‘m+psixologik xususiyatlar+ot strukturasiga egaligi borasidagi xulosalardan “English (for correspondence students of Pedagogical Institutes)” o‘quv qo‘llanmasida foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-son buyrug‘iga asosan berilgan 110-234-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada qo‘llanmada keltirilgan matnlarda badiiy tasvirlovchi leksik birliklarning to‘g‘ri ifodalanishiga erishilgan hamda mazkur tadqiqotda keltirilgan leksik birliklar asosida Glossariy qismi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan 1 ta monografiya sh, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning asosiy hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Zamonaviy tilshunoslikda badiiy tarjima masalalari**” deb nomlangan birinchi bobida badiiy matn tarjimasining nazariy asoslari, badiiy tarjimaning lingvomadaniy va lingvostilistik aspektlari, portret tasvirlash badiiy qahramonni ifodalashning asosiy usuli sifatida ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganilib, ularga munosabat bildirilgan.

Badiiy tarjima bevosita badiiy adabiyot namunalarini bir tildan boshqa tilga badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda olib o‘tish jarayoni bo‘lib, u tarjimondan nafaqat badiiy tarjimaning asosiy xossalari, balki qo‘shimcha ijodkorlik qobilyatini ham talab etadi. Tarjima aslyat matnidagi axborotni tarjima tili o‘quvchilari uchun tushunarli va kommunikativ funksiyaga ega matn qilib boshqa tilga o‘girish hisoblanadi. Oxford Advanced Learner’s Dictionary lug‘atiga

ko‘ra, tarjima og‘zaki yoki yozma nutqning ma‘nosini tarjima tilida ifodalashdir ⁴. Shu o‘rinda “ma‘no” so‘zi negizida qanday tushunchalar yotishi va bu ma‘nolar jarayonda qanday tarjima qiyinchiliklarini yuzaga keltirishi odatda tadqiqotchilar uchun ahamiyatlidir. Shu o‘rinda odatda tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaruvchi omillar lingvistik va ekstralingvistik omillarga tasniflanishi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan e‘tirof etilganligiga urg‘u qaratmoqchimiz. Lingvistik omillar odatda badiiy matnning fonetik, sintaktik, leksik-semantik, stilistik, frazeologik, matn sathlariga oid, ekstralingvistik omillar esa milliy-madaniy, lingvokognitiv, lingvopragmatik, etnolingvistik kabilar bilan izohlanadi.

Badiiy asarda nafaqat ma‘lum voqealar, balki asar muallifining estetik va falsafiy qarashlari ham o‘z aksini topadi. Bu kabi falsafiy qarashlar bir yaxlit tizim yoki turli xil sohalarining nazariyalaridan iborat majmuadir. Tarjimona falsafa, estetika, etnografiya, geografiya, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik, psixologiya, tarix, san‘at va boshqa sohalar bo‘yicha bilimlarni o‘zga til sohiblariga uzatish uchun mazkur sohalar bo‘yicha minimum bilimga ega bo‘lishi talab etiladi⁵. Badiiy tarjima ham madaniyatlararo, ham millatlararo ta‘sirning tasviriy ko‘rinishlaridan biridir. Darhaqiqat, u milliy adabiy jarayonning asosiy qismi hisoblanadi. Badiiy tarjima bevosita tarjima tilining kommunikativ funksiyasi va uning estetik vazifasini hosil qilishda asosiy rol ni o‘ynaydi. Bu jarayon tarjimondan alohida tirishqoqlik va bilimdonlikni talab qiladi. Badiiy tarjima ham madaniyatlararo, ham millatlararo ta‘sirning tasviriy ko‘rinishlaridan biridir. Darhaqiqat, u milliy adabiy jarayonning asosiy qismi hisoblanadi.

Badiiy tarjima bevosita tarjima tilining kommunikativ funksiyasi va uning estetik vazifasini hosil qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayon tarjimondan alohida tirishqoqlik va bilimdonlikni talab qiladi. Shuni ta‘kidlash kerakki, badiiy tarjima nafaqat obyektiv omillar (aniq tarixiy adabiy davr va xronologiya), balki subyektiv (she‘riyatdagi voqelik) bilan ham bog‘liq. Hech bir tarjima to‘liq, aniq bo‘lishi mumkin emas, chunki obyektiv ma‘lumotlarda adabiyotni qabul qiladigan butun til tizimi asl nusxaning ma‘nosini mukammal tarzda yetkaza olmaydi. Bu esa muqarrar ravishda ma‘lum miqdordagi ma‘lumotni yo‘qotishga olib keladi. Badiiy tarjimaning yana bir muammosi – aniqlik va sodiqlik muammosi. Badiiy matni tarjima qilganda tarjimona oldida turli tillardagi so‘z va iboralarning semantik ma‘nosi va stilistik ifodasidagi nomuvofiqlik muammosi paydo bo‘ladi. Bu nomuvofiqliklar bevosita asliyat va tarjima tillari va ushbu tillarning sohiblarining olam milliy manzarasidagi o‘zaro farqlar natijasida yuzaga keladi. Odatda o‘zbek badiiy asarlarda tirishqoq, mehnatkash, tinim bilmay ishlovchi insonga nisbatan o‘xshatish stilistik vositasidan foydalangan holda “*chumolidek mehnatkash*” frazeologik birligi qo‘llanadi. Bu frazeologik birlik qo‘llangan matni ingliz tiliga tarjima qilishda esa kommunikativ funksiyasi yuzaga keltirish maqsadida “*to be busy as a bee*” frazeologik birligini qo‘llaymiz. Bunda biz badiiy tarjimaning ikki asosiy me‘yorlaridan biriga rioya qilish orqali bu variantni tanlaymiz. Bu yerda

⁴Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 2005. –P.1631.

⁵Казакова Т. А. Практические основы перевода. English – Russian. Учебное пособие. / Т. А. Казакова. – СПб.: Лениздат, Издательство Союз, 2002. – 320 с. – (Изучаем иностранные языки)

sodiqlik va aniqlikka erishish uchun o‘zbeklar va inglizlar odatda mehnatkash insonni ko‘pincha qaysi jonzotga o‘xshatish borasida fikrlariga e‘tibor qaratamiz va o‘zbeklar mehnatkash insonni “chumoli”ga, inglizlar esa “asalari”ga o‘xshatishini aniqlaymiz va shuning natijasida yuqoridagi tarjima variantidan foydalanamiz.

Tadqiqodchilar tarjima muammolarini stilistik, lingvistik va madaniy muammolarga tasniflashadi. Stilistik muammolar uch guruhga, ya‘ni leksik-stilistik, sintaktik-stilistik hamda asarning turli janrlarning stilistik xususiyatlari bilan bog‘liq muammolarga bo‘linadi. Lingvistik muammolarga asliyat va tarjima tillarining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va matnga doir bo‘lgan masalalar kiradi. Madaniyatga doir muammolar esa asliyat va tarjima tillari sohiblarining madaniyati, urf-odatlarini, dunyoqarashi, olam milliy manzarasi, an‘ana va marosimlarini anglatuvchi til birliklarida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilining funksional uslublari haqida so‘z borganda, tilimizda beshta funksional uslub, ya‘ni badiiy, so‘zlashuv, publitsistik, ilmiy hamda rasmiy uslublar mavjud. Bu uslublarning tilda qo‘llanishi borasida har birining o‘z vazifalariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi.

Ingliz tilida badiiy uslub adabiyot yoki ijodkorlik uslubi sifatida ommalashib, u asosan estetik funksiyani bajaradi. Har bir individual asarning o‘z muallifi bo‘ladi va ushbu uslubdagi asarlarda so‘zlashuvga xos so‘zlar, shevalar, shuningdek biror fanga oid terminlar ham qo‘llanadi. Badiiy uslub she‘riyat, nasr va drama asarlari tilining umumiy uslubi hisoblanadi⁶. Tadqiqot ishimizga mazkur til uslubining aloqadorligi shundaki, tadqiqot obyekti hisoblangan qahramon portretini tasvirlovchi til birliklari asosan muallifning nutqi hisoblanadi. Shuning uchun tarjima jarayonida muallif uslubining ahamiyatiga ham e‘tibor berish talab etiladi. Bu borada keyinroq fikr yuritamiz. Nasriy asarlar asosan hikoya va roman kabilar hisoblanadi. Tasavvur she‘riyatchalik boy bo‘lmaydi. Nasrda tilning boshqa uslublarning belgilarini ham uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot ishimizning obyekti hisoblangan badiiy qahramon portretini tasvirlovchi lisoniy birliklarni tahlil qilish uchun tadqiqot materiali sifatida tanlangan A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning ingliz tiliga ikki xil tarjima variantlari bo‘lganligi uchun biz, avvalo, asliyat tili hisoblangan o‘zbek tili va tarjima tili hisoblangan ingliz tilining uslubiy xususiyatlari, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni yaxshi tushunishimiz lozim.

Badiiy tarjimaning lingvostilistik xususiyatlari deganda asliyat va tarjima tillarining funksional uslublari, xususan, ushbu tillardagi badiiy uslubning xossalari borasidagi o‘xshashlik va farqli jihatlari va ularning tarjima jarayonidagi ahamiyatiga, shuningdek, badiiy asarda qo‘llanadigan stilistik vositalar va ularning tarjima qilish strategiyalariga e‘tibor qaratishni tushunamiz. Badiiy tarjimaning lingvokulturologik aspektlari badiiy asarni bir tildan boshqa tilga o‘girishda tarjimonning asarda voqelangan madaniyatni anglatuvchi turli xil hodisa yoki voqealar, bir tilda realiya sifatida talqin qilinadigan leksik birliklarning o‘zga tilda realiya xususiyatini yo‘qotishi yoki o‘sha tilda uchramasligi, turli xil badiiy

⁶ HUBÁČEK, Josef – Učebnicestyltika, p. 75.

tasviriy vositalar, jumladan, metafora, metonimiya, o'xshatish, mubolag'a kabilar o'ziga xos konseptuallik, ya'ni ma'no ko'chishidagi ikki xalqning qarashlaridagi farqlarda namoyon bo'ladi.

Demak, tadqiqotimiz materiali hisoblangan A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani va uning Ilhomjon To'xtasinov va Mark Riz tomonidan o'g'irilgan ikki xil tarjima variantlarida personaj portretining berilishi va ularda lingvistik, milliy-madaniy va lingvostilistik ta'sirlarni saqlab qolinishi masalalariga e'tibor qaratamiz.

Tadqiqot ishimiz nasriy matnlarda personaj portretini tasvirlovchi til birliklar va ularning lingvokulturologik va lingvostilistik xususiyatlari, shuningdek, mazkur xususiyatlarni nasriy matn tarjimasida aks etish masalalariga bag'ishlanganligi bois, dissertatsiyaning mazkur faslida adabiyotshunoslikda portret tasvirlashning o'ziga xos qonun-qoidalari va ularning tarjimadagi roli haqida so'z yuritishni maqsad qildik.

Shu o'rinda portret tushunchasining ingliz, o'zbek va rus tillaridagi lingvistik, adabiyotshunoslik terminlari izohli lug'atlarida berilgan ta'rif va tavsiflariga to'xtalib o'tsak.

O'zbek tilining izohli lug'atida portret tushunchasining ikkita ma'nosi berilgan bo'lib, ular quyidagilar: "portret [fr. portrait – tasvir]

1. real hayotda mavjud bo'lgan bir yoki bir necha kishining yoki rassom tasavvuridagi qiyofaning tasviri yoki fotograf tomonidan ishlangan surati.

2. ko'chma Adabiy asarda personajlar qiyofasining tavsifi, tasviri"⁷. Portretning biz uchun ahamiyatli tavsifi izohli lug'atda berilgan ikkinchi ma'nosi, ya'ni badiiy matnda personajlar qiyofasining tasviridir. D.Quronovning "Adabiyotshunoslik lug'ati"da portretning quyidagicha ta'rif va xususiyatlari bayon etilgan: "portret (fr. peindre – tasvirlamoq) – 1) personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.

Asar qahramon obrazi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot mavzularidan biridir. Qadim zamonlardan to hozirgi kungacha tasvirlangan tasvirning ahamiyati shu kungacha badiiy adabiyot namunalari orqali yetib kelgan. Portret tasvirlash turli xil san'at turlarida, shu jumladan adabiyotda ham o'z aksini topadi.

Matnda asar personajini tavsiflash turli xil badiiy usullar, ya'ni qahramonning xatti-harakati, muallifning xarakteri, qahramon ismini tasvirlovchi o'zini o'zi tavsiflash, qahramonning xususiyatlarini ochib beruvchi ichki monolog, dunyoqarash, qahramonning orzulari va boshqalar bilan amalga oshiriladi⁸. Asar qahramonini tasvirlashda nafaqat uning tashqi ko'rinishi, balki insonga xos bo'lgan boshqa jihatlar ham lisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi mumkin.

⁷Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – В.299.

⁸Есин А. Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения [Текст] / А. Б. Есин. – М.: Флинта, Наука, 2000. – С. 51.

Portret tasviri badiiy asar matnidagi qahramon obrazining nutqiy timsoli bo‘lib, unda individual muallifning qahramon haqidagi tushunchasi va bahosi mavjud.

Portret – bu insonning tashqi ko‘rinishi, uning yuzi, qomati, kiyimi, imo-ishoralari va xarakterini tasvirlash demakdir. Portret asar qahramoni tabiatining muallif uchun muhim bo‘lgan tomonlarini bevosita aks ettiradi. Yozuvchi tashqi ko‘rinish, kiyim-kechak, jihozlarning turli belgilarini ta’kidlab yoki yo‘qotib, o‘quvchiga teginish, uni hayajonlantirish, kuldirish, sevgini ilhomlantirish, nafrat, qo‘rquv, g‘azabni qo‘zg‘atishga intiladi. Portret tasvirlashning adabiyotshunoslikda bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular orasida tavsifiy portret eng keng tarqalgan turi bo‘lib, asosan, asar qahramonlarining tashqi ko‘rinishi borasida yozuvchi tomonidan beriladigan axborot hisoblanadi. Unda nafaqat har bir millat, balki har bir muallifning o‘z dunyoqarashi nuqtayi nazaridan tavsifiy portretning xususiyatlari har xil bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, portretning shartli ravishda statik va dinamik turlari ham farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, portretning bu turida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Dinamik portret turi esa asar qahramonlarining turli xatti-harakatlarini ifodalashda faol qo‘llanadi. Statik va dinamik portretning yaqqol ajratib turadigan jihatlari yana shundan iboratki, statik portret orqali insonning tabiiy ma’lumotlarini beradi: yuz xususiyatlari va shakllari, bo‘yi, terining rangi, ko‘zlari, sochlari, shuningdek, kiyimning tavsifi berilsa, dinamik portret esa qahramonlarning xatti-harakatlarini, jumladan, yuz ifodalari, imo-ishoralar, xulq-atvor, yurish, ovoz tembri va nutqini tashqi tasvirlash usuli hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida asarning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Otabekning badiiy portretini tasvirlashda yozuvchi portretning ham statik, ham dinamik turlaridan foydalangan bo‘lib, umumiy jihatdan esa tavsiflovchi portretidan foydalangan.

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb yetarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li – Otabek⁹.

Portret tasviriga berilgan ushbu misolda tavsifiy portret Otabekning tashqi ko‘rinishi umumiy jihatdan tasvirlashda ko‘rinsa, statik portret Otabekning tashqi qiyofasi, ya’ni *ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam* – qomati, *oq yuzlik* – terisining rangi, *kelishgan* – gavdasi, *qora ko‘zlik* – ko‘zining rangi, *mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan* – yuz ifodasi kabilarda namoyon bo‘lsa, dinamik portret *og‘ir tabiatlik* – xarakteri, *qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi* – ruhiy holati lisoniy birliklar orqali ifodalanmoqda.

Demak, badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarini asliyat matnidek teng ta’sirga ega holatda tarjima tiliga olib o‘tishda portretning umumiy xossalari, tavsifiy portret, shuningdek, statik va dinamik portret masalalariga alohida e’tibor

⁹ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарк, 2009. – Б. 4.

qaratish bilan birgalikda portretni tasvirlovchi til birliklarining sintaktik, leksik-semantik, stilistik hamda lingvokulturologik xususiyatlariga alohida ahamiyat berish talab etiladi

Dissertatsiyaning **“A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimasida personaj portretini qayta yaratish muammolari”** deb nomlangan ikkinchi bobida A.Qodiriy asarida portret tasviri masalalari, portretning tashqi qiyofasini tasvirlovchi lisoniy birliklarning tarjimada berilishi hamda qahramon portretining ichki olami, ya’ni xarakterini tasvirlovchi lisoniy vositalar va ularning badiiy tarjimada qayta ifodalanish masalalari tahlilga tortilgan.

“O‘tkan kunlar” romanida asar qahramonini tashqi qiyofasi va ichki dunyosini tasvirlashning badiiy va lisoniy xususiyatlarini o‘rganish uchun o‘zbek adabiyoti, xususan romanchilikda portret tasviri masalalariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o‘zbek tiliga amalga oshiriladigan tarjimalarda tarjimon bir qator lingvistik muammolarga duch keladiki, bular mazkur tillardagi o‘ziga xos allomorfik va izomorfik xususiyatlarga bog‘liq. Bu kabi xususiyatlar genetik jihatdan o‘zbek tili Oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhiga kirishida, ingliz til esa Hind-Yevropa tillari oilasi, german tillari guruhiga mansubligida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, morfologik tasnifga ko‘ra ham bu ikki til turli til guruhiga mansub, o‘zbek tili morfologik jihatdan agglutinativ tillar, ingliz tili flektiv tillar guruhiga kiradi. Tabiiyki, mazkur tillar ham genetik, ham morfologik tasnifga ko‘ra ikki til guruhiga mansub bo‘lganligi bois, allomorfik xususiyatlar, ya’ni tillardagi til sathlari bo‘yicha farqlar katta salmoqni tashkil etadi. Bu kabi tafovutlar tabiiyki, badiiy matn va uning lingvistik xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

“O‘tkan kunlar” romanidagi portret tasvirlovchi til birliklarining morfologik xususiyatlari o‘ziga xos ahamiyatga ega. Yozuvchi roman qahramonlarining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini tasvirlayotganda asosan sifat, ot, son, ko‘makchi, fe‘l va fe‘l shakllari, shuningdek, shakl yasovchi qo‘shimchalardan faol foydalangan. Quyidagi matn orqali asarning bosh qahramonlaridan biri hisoblangan Hasanalining tashqi qiyofasi tasvirining morfologik xususiyatlarini tahlilga tortamiz.

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi (7-bet).

Mazkur matnda *“oltmish yoshlar chamasida”* birikmasi orqali qahramonning yoshi tasvirlanib, u **“son+ot+shakl yasovchi qo‘shimcha+ko‘makchi”** ko‘rinishini hosil qilgan. *“Cho‘ziq yuzlik”* birikmasi **“sifat-ot”** orqali yasalab qahramonning yuzini, *“do‘nggiroq peshonalik”* birikmasi esa **“sifat+ot”** ko‘rinishida birikib, yuzning peshona qismi, *“sariqqa moyil”* birikmasi esa **“ot”** so‘z turkumi **“ko‘makchi”** bilan birikib, yuzining rangini, *“to‘garak qora ko‘zlik”* birikmasi esa **“sifat+sifat+ot”** ko‘rinishida birikib, ko‘zining rangi, *“oppoq uzun*

soqollik” birikmasi orqali esa qahramon soqolining shakli va rangi tasvirlanib, ushbu birikma ham “**sifat+sifat+ot**” ko‘rinishida birikkan.

Yuqoridagi matnda qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlashda qo‘llangan lisoniy vositalarning morfologik xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, muallif tomonidan son so‘z turkumi bir marta, ot so‘z turkumi olti marta, sifat so‘z turkumi olti marta, ko‘makchi yordamchi so‘z turkumi ikki marta, shakl yasovchi qo‘shimcha esa ikki marta qo‘llangan. Demak, romanda muallif portret tasvirini bayon etishda asosan ot va sifat so‘z turkumiga mansub so‘zlardan keng foydalangan. Bu esa tarjima jarayonida mazkur so‘z turkumlarning ingliz tiliga tarjimasiga e‘tibor qaratishimiz kerakligini anglatadi. Chunki ingliz va o‘zbek tillarida ot so‘z turkumining allomorfik xususiyatlari boshqa so‘z turkumlariga nisbatan ko‘proq.

Badiiy matnda portret tasvirlovchi muhim lisoniy xususiyatlardan yana biri bu – sintaktik xususiyatlardir. Sintaktik xususiyatlarning ahamiyatli jihati shundaki, romanda qo‘llangan portret tasvirlovchi lisoniy birliklarni ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolar, ingliz va o‘zbek tillarining sintaktik sathlardagi o‘zaro allomorfik xususiyatlarga ega ekanligidadir. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu ikki til ham morfologik tasnifga ko‘ra ikki xil til guruhiga tegishlidir. Odatda sintaktik birliklar hisoblangan so‘z birikmasi va gap turlarining ikki tildagi ayrim farqli jihatlar, so‘z tartibi, gaplar strukturasi ko‘ra allomorfik xususiyatlar badiiy tarjimada ham o‘ziga xos qiyinchiliklar tug‘diradi.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida portret tasvirining sintaktik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Azizbek orqasidan kelguchi bu ikki otliqdan so‘ng sipohlar turkumi boshlanib, zangor movutdan tizzagacha tushkan kalta kamzul, qizil movutdan shim, oyog‘ida sag‘ri etik, boshda Rayimbek dodxohning boshidag‘idek popoq, ammo ust tomoni qizil movutdan, oq qayishdan kamar, so‘lig‘a qilich osilib, o‘ng tomoniga to‘fangcha qistirilg‘an har qatorida to‘rttadan otliq kelmakda edilar. Sipohlarning keksaliklari to‘g‘risidagi nuqsoni e‘tiborga olinmasa, ko‘rinish muntazam edi (82-bet)¹⁰.

Ushbu parchadagi “zangor movutdan tizzagacha tushkan kalta kamzul”, “qizil movutdan shim”, “oyog‘ida sag‘ri yetik”, “boshda Rayimbek dodxohning boshidag‘idek popoq”, “ust tomoni qizil movutdan”, “oq qayishdan kamar”, “so‘lig‘a qilich osilib, o‘ng tomoniga to‘fangcha qistirilg‘an” kabi lisoniy birliklar orqali badiiy portret tasvirlanmoqda.

“Zangor movutdan tizzagacha tushkan kalta kamzul” lisoniy birligi asardagi sarkardalarning tashqi qiyofasini tasvirlab, tuzilishi jihatidan murakkab sintaktik birlik hisoblanadi. Bu yerda sarkarda kiygan kamzul tasvirlanmoqda. Bunda *zangor movutdan tizzagacha tushkan kalta kamzul* birikmasi **rang+material+ bo‘yi+hajmi+ot** modeli orqali sintaktik sifat tartibli birikmani hosil qilmoqda. Bu yerda “tizzagacha tushkan” birikmasi “-kan” sifatdosh yasovchi qo‘shimchaning qo‘shilishi esa uning morfologik xususiyatini anglatadi. Badiiy tarjimada odatda ingliz va o‘zbek tillarining otni aniqlab

¹⁰ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б.82.

kelayotgan sifatlarni tartibi ikki xil tuzilishga ega bo'lganligi bois turli tarjima qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. "Qizil movutdan shim" birikmasi sintaktik xususiyatiga ko'ra ham bitishuv, ham boshqaruv usulida yasalgan bo'lib, sarkardaning shimini qanday matodan tikilganligini "oyog'ida sag'ri etik" oyoq kiyimining rangini bildirib, sintaktik jihatdan bitishuv yo'li bilan yasalgan. *Boshda Rayimbek dodxohning boshidag'idek popoq, ammo ust tomoni qizil movutdan*" bosh " kiyimining rangini ifodalaydi. Bu yerda popoqni asarning boshqa qahramonining bosh kiyimini qo'shilishi A.Qodiriy takrorlashdan qochishga harakat qilganligini anglatadi. Sintaktik jihatdan ushbu gapda ammo teng bog'lovchining zidlash turini qo'llangan. "Oq qayishdan kamar" sarkardaning kamarini rangini va materialini anglatib, sintaktik jihatdan esa ushbu birikma murakkab birikma hisoblanadi. Oq qayish birikmasi obyektning rangini aniqlab, bitishuv yo'li bilan yasalgan. Qayishdan kamar birikmasi esa boshqaruv yo'li bilan yasalgan bo'lib, obyektning qanday materialdan yasalganligini anglatmoqda. "So'lig'a qilich osilib, o'ng tomoniga to'fangcha qistirilgan" birikmasida "osilib" so'ziga "-ib" qo'shimchasi qo'shib, ergashgan qo'shma gapni yasab kelmoqda.

"O'tkan kunlar" romani tilining lingvistik xususiyatlaridan yana biri, unda turli stilistik vositalarning faol qo'llanishidir. A.Qodiriy mazkur asarni yozishda inson qiyofasini tasvirlashda o'quvchiga badiiy estetik baxsh etish uchun metafora, o'xshatish, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalardan keng foydalanadi. Masalan, asar qahramonlaridan biri Jannat kampir tasvirida biz ta'kidlab o'tgan stilistik usullardan o'xshatish va mubolag'a mohirona foydalanilgan.

Badiiy matnda portretning tashqi qiyofasini tasvirlovchi lisoniy birliklarni badiiy tarjimada qayta ifodalashning o'ziga xos muammolari mavjud bo'lib, bu kabi lisoniy vositalar lingvistik, lingvokulturologik, lingvokognitiv xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Odatda o'zbek tilida portretning tashqi qiyofasini tasvirlashda qo'llanadigan ayrim so'zlarning muqobillari ingliz tilida uchramaydi yoki shu so'z ifodalaydigan ma'no tarjima tilida topilmaydi. Yurtimiz va xorijda badiiy adabiyotdagi qahramon portretini tasvirlovchi til birliklarini tarjima qilish masalalari borasidagi ilmiy izlanishlarning soni ko'p emas. Bu esa tarjimaning mazkur masalalari bilan bog'liq muammolariga yechim topish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini anglatadi.

Yuz tasvirini ifodalashda qo'llanadigan leksik birliklar ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qo'llangan so'zlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bular mazkur tillardagi lingvistik xususiyatlardan tashqari, o'ziga xos lingvokulturologik va lingvokognitiv xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Jumladan, inson gavdasini ifodalashda qo'llanadigan "alpqomat" leksik birligi lingvokulturologik xususiyatga ega bo'lib, odatda kuchli, katta gavdaga ega bo'lgan, baquvvat insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu so'zning O'TILDagi ma'nolariga ko'ra, 1. Qadimgi turkiy xalqlarda ikki qo'shin o'rtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi; 2. O'zbek xalq dostonlarida g'ayritabiiy kuch-quvvati, mardligi, jasorati va shu

kabilar bilan ajralib turadigan qahramon sifati¹¹. Xalq dostonlari xalq og‘zaki ijodi hisoblanib, unda xalqning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, olamni milliy anglashi kabilar namoyon bo‘ladi. “Alpqqomat” so‘zi kuchli, baquvvat, mard, jasoratli insonlarga nisbatan ishlatilganligi bois ingliz tiliga “heracle figure” tarzida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki aynan “heracle figure” birligi o‘zbek tilidagi “alpqqomat” leksik birligiga mos.

Quyida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida asar qahramonlarining tashqi qiyofasining ingliz tilida qayta ifodalash jihatlarini aniqlash maqsadida ushbu romanning o‘zbek tarjimoni I.To‘xtasinov hamda amerikalik tarjimon M.Riz tomonidan inglizcha tarjimalarini tahlilini amalga oshiramiz.

Asliyat matni: *Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag‘i bir keksa edi (13-bet)*¹².

Asarning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Mirzakarimboyning tashqi qiyofasining tasviri qator lisoniy birliklar, jumladan, *qirq besh-elli yoshlar, qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan* kabi sintaktik birliklardan iborat. Bular so‘z birikmasi shaklida muallif tomonidan qo‘llangan. Matnda *elli besh yoshlar orasidag‘i* birikmasi orqali esa Akram hojining yoshi tasvirlangan.

Qirq besh yoshlar so‘z birikmasi orqali qahramonning yoshi, *qora ko‘zi* uning ko‘z tusi, *ko‘rkam yuzli* orqali yuzining tasviri, yaxshigina kiyingan birikmasi orqali esa tashqi ko‘rinishi tasvirlangan. Ushbu matn I.To‘xtasinov hamda M.Riz tarjimalarida quyidagicha berilgan.

I.To‘xtasinov: *A man named Mirzakarim was a black-browed, blackeyed, handsome and well-dressed man about forty-five to fifty. Akramkhoji was a man of about fifty five years old.*

M.Riz: *Mirza Karim Qutidor appeared to be about forty-five years old, with strong brows and dark eyes; he was well dressed and had a handsome face. Akram Hajji was roughly fifty-five years of age.*

Yuqorida keltirilgan asliyat matnidagi lisoniy birliklarning tarjimada saqlanishi borasida tahlillarga ko‘ra, asar qahramonining tashqi qiyofasini ifodalovchi *qirq besh-elli yoshlar, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan* lisoniy birliklari tarjima variantlarida, fikrimizcha, asliyatga monand tarzida o‘tkazilgan. Ushbu qahramon qiyofasida qosh tasvirini ingliz tiliga qayta ifodalashda I.To‘xtasinovning ham, M.Rizning ham tarjima variantlarida tasviriylik to‘liq ifodalanmagan. Asliyatda qora qosh birikmasi orqali Mirzakarim qutidorning qoshlari qora ekanligi ifodalangan. Tarjimalarda esa ushbu birikma I.To‘xtasinovda *black-browed (qoshi-ko‘zi qora qush (albatros))*, M.Rizda esa *strong brows (qalin qoshli)* tarzida berilgan. Biroq ushbu tarjima variantlarida tasviriylik to‘laligicha aks etmagan. Fikrimizcha, mazkur birikmani ingliz tiliga madaniy ekvivalentlik tarjima usulidan foydalangan holda “dark brow” tarzida o‘girilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ingliz tilida

¹¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Б” ҳарфи. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Б. 75. www.ziyouz.com kutubxonasi.

¹² Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2009. – Б.13.

odatda qora qoshli insonni tasvirlashda “dark brow” birikmasi qo‘llanadi. Chunki ingliz tilida insonning qora rangli biror organini ifodalashda ko‘pinchi “dark” sifati qo‘llanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida inson xarakterini ifodalaydigan lisoniy birliklarning o‘ziga xos farqli va o‘xshashlik jihatlari mavjud bo‘lib, struktur jihatdan ular o‘zaro izomorfik xususiyatga ega bo‘lsa, leksik-semantik jihatdan allomorfik xususiyatlari mavjud. Masalan, ingliz tilidagi “wild-tempered (yumshoq xarakterli)” leksik birligi tuzilishi jihatidan qo‘shma so‘z hisoblanadi, “wild” va “temper” so‘zining sifat-dosh II shaklining o‘zaro birikuvidan tashkil topgan. Ushbu so‘z sifat+otlashgan sifat modeli asosida yasalgan. O‘zbek tilida esa “tartibbuzar” leksik birligi “tartib” ot so‘z turkumi hamda “buzmoq” fe‘lining otlashgan shaklining birikuvidan hosil bo‘lgan. Ushbu so‘z ot+otlashgan fe‘l modeli, ya‘ni ot+fe‘l+so‘z yasovchi qo‘shimcha asosida yasalgan. Bu jihatlar bu ikki tilning inson xarakterini ifodalovchi lisoniy vositalardagi izomorfik xususiyatlar hisoblanadi.

Ingliz va o‘zbek tillarida inson xarakterini ifodalovchi leksik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari o‘zaro allomorfik hisoblanib, bu bevosita mazkur lisoniy vositalarning lingvokulturologik va lingvokognitiv xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Bu orqali ushbu lisoniy birliklarning leksik-semantik ma‘nolarida lingvokulturologik xususiyatlar, shuningdek olamni anglashda ushbu lisoniy birliklar ifodalagan ma‘nolar ikki tilda turlicha bo‘lishi mumkin. Jumladan, ingliz tilida “*narrow-minded*” leksik birligi mavjud bo‘lib, lug‘atlarda ushbu leksik birlikning o‘zbek tilidagi muqobili “*kaltafahm*” so‘zidir. Ushbu so‘zning ingliz tili izohli lug‘atlarda “not willing to accept ideas or ways of behaving that are different from your own, ya‘ni o‘zinikidan farq qiladigan xulq-atvor normalari yoki fikrlarni qabul qilishni istamaydigan” ma‘nosi mavjud¹³. Shuningdek, inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda bir yoqlama, tushunchasi tor, dunyoqarashi tor, ong-bilim darajasi tor kabi sifatlar ham kaltafahm so‘ziga tegishliligi berib o‘tilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa “kaltafahm” so‘zining “darrov tushunib, uqib ololmaydigan, aqli, fahmi yetmaydigan; fahmi kalta” ma‘nosi mavjud. Insonning xarakterini ifodalaydigan ushbu leksik birlik ingliz tilida inson aqli bilan bog‘lik kamchilik sifatida qabul qilinsa, o‘zbek tilida esa fahm-farosat yuzasidan kamchilik nazarda tutiladi.

Shu kabi farqli jihatlar ham badiiy tarjimada qahramonning ichki dunyosi, xarakterini qayta ifodalashda va to‘g‘ri muqobil tanlashda tarjimonga qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Quyida badiiy matnda qahramonning psixologik xarakteri, ichki dunyosini tasvirlaydigan lisoniy vositalarni badiiy tarjimada qayta ifodalanish masalalarini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat matni: — *Xudo haqni nohaq qilmadi, bechora yosh yigitning haqsizga qoni to‘kilmadi. — Qutidordek qo‘ymizoj bir odamning bunday zo‘r ishka oralashqanlig‘iga aql ham bovar qilmas edi (99-bet).*

¹³ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/narrow-minded>.

I.To'xtasinov: – “God helped him and didn't let him be killed unfairly.” It was unbelievable, that such kind of a generous man like Qutidor did it”.

M.Riz: “It is impossible to even fathom how such a docile lamb such as Qutidor could have a hand in such violence” (188-bet).

Ushbu parchada keltirilgan “qo‘ymijoz” lisoniy birligi orqali Qutidorning ichki xarakteri, ya‘ni ichki dunyosi tasvirlab berilmoqda. *Qo‘ymijoz* so‘zining o‘zbek tilining izohli lug‘atida “yuvosh, muloyim, mo‘min-qobil” ma‘nolari mavjud. Ushbu so‘z hech kimga zarari tegmaydigan odamga nisbatan ishlatiladigan sifat bo‘lib, *qo‘ydek yuvosh, qo‘y o‘g‘zidan cho‘p olmagan* kabi iboralar bilan ma‘nodosh hisoblanadi.

I.To‘xtasinov “qo‘ymijoz” so‘zini ingliz tiliga “**generous**” tarzida tarjima qilgan. “**Generous**” so‘zi o‘zbek tilida *saxiy, qo‘li ochiq* kabi ma‘nolarni angalatadi. Shuning uchun I.To‘xtasinovning tarjima varianti asliyat matnidano uzoqlashgandek tuyuladi.

M.Riz esa ushbu leksik birlikni *a docile lamb* shaklida bergan. Bu tarjima ham asliyat matniga to‘liq mos emas. Chunki ushbu so‘zning “A person or animal that is docile is quiet, not aggressive, and easily controlled”¹⁴, ya‘ni “sokin, muloyim va oson bo‘ysinuvchan inson yoki qo‘y” ma‘nosi mavjud. M.Rizning tarjima variantida esa itoatkor qo‘zi ma‘nosini anglatib qolgan. Asliyat matnida muallif Qutidorga nisbatan “qo‘ymijoz” so‘zining ishlatish orqali uning xarakteridagi muloyimlik, qobillik, boshqalarga yomonligi tegmaydigan xususiyatlar mavjudligini anglatadi. Ingliz tilida esa “gentle as a lamb” frazeologik birligi mavjud bo‘lib, uning ingliz tili lug‘atlarda “very kind and calm”¹⁵ ma‘nolari mavjud. “Gentle as a lamb” frazeologik birligi *yuvosh, muloyim, qobil* ma‘nolarini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan mazkur leksik birlikni madaniy ekvivalentlik orqali tarjima qilinganda asliyatdagi ham leksik-semantik, ham stilistik ma‘no saqlanib qolingani bo‘lardi. Tarjima matnidagi yuvosh, muloyim, qobil ma‘nolari leksik-semantik ma‘nolarni anglatganda, asliyat matnida “qo‘ymijoz” birligidagi metaforik ma‘no tarjimada matnida “gentle as a lamb” tarzida o‘xshatishga o‘zgartirib tarjima qilingani undagi stilistik ma‘no saqlanib qolinganligini bildiradi. Odatda metaforani tarjima qilish strategiyalaridan biri bu – metaforani tarjima tilida o‘xshatishga o‘zgartirib tarjima qilishdir.

Demak, badiiy tarjimada portret tavsirlovchi til birliklarini asliyat matnidek teng ta‘sirga ega holatda tarjima tiliga olib o‘tishda portretning umumiy xossalari, tavsifiy portret, shuningdek, statik va dinamik portret masalalariga alohida e‘tibor qaratish bilan birgalikda portretni tavsirlovchi til birliklarining sintaktik, leksik-semantik, stilistik hamda lingvokulturologik xususiyatlariga alohida ahamiyat berish talab etiladi.

Dissertatsiyaning “**Badiiy tarjimada portret tasviri ta‘sirining milliy-madaniy va lingvostilistik xususiyatlari**”, deb nomlangan uchinchi bobida badiiy tarjimaning o‘ziga xos muammolari va ularni bartaraf etish usullari, badiiy tarjimada portret tasvirining milliy-madaniy ta‘sirini ifodalanishi hamda badiiy

¹⁴ <https://dictionary.reverso.net/english-cobuild/docile+as+a+lamb>.

¹⁵ <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/gentle-as-a-lamb>.

tarjimada portret tasvirining lingvostilistik ta'sirining ifodalanishi tadqiqi masalasiga bag'ishlangan.

Badiiy tarjima san'at sifatida qaralganligi sababli, u muallifning xayoliy, intellektual va intuitiv ijodkorligini aks ettirishi kerak. Biroq, ta'kidlanishicha, badiiy tarjimadan o'ta ishonchli yoki asl nusxadan juda xoli bo'lishini kutish mumkin emas. Agar tarjima asliyat matniga juda sodiq bo'lsa, ya'ni aksariyat lisoniy vositalar va madaniy belgilar asliyat matnidagidek saqlansa, u o'quvchi uchun g'aliz va estetik jozibadorlikdan xoli bo'lishi mumkin. Shuningdek, tarjimon badiiy tarjimaga juda ham erkin munosabatda bo'lsa, tarjima mahsuloti badiiy tarjima me'yorlariga javob bermasligi mumkin. Bu shuni anglatadiki, asliyat matnidagi lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik birliklarning tarjimada izohi yoki tavsifi berilmasa tarjima matni talqin qilinishda muammoga duch kelishi mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan birliklarni barchasini tarjima matni tiliga moslab o'ziga xos qo'shimcha axborotlarni berish masalalari ko'payib ketsa, badiiy tarjima o'zining estetik qiymatini, shuningdek, tarjimashunoslikdagi asliyat va tarjima matnlarining shakl va mazmun nuqtayi nazardan mos kelmaslik holatlari uchrashi mumkin. Masalan, o'zbek tilidagi "Navro'z", "yaktak", "belbog'", "sumalak", "osh", "somsa" kabi milliy madaniyatni anglatuvchi lisoniy vositalar hind ayollar kiyimi "sari", yapon milliy kiyimi "kimano" singari tarjima tiliga transliteratsiya yoki transkripsiya usullaridan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri olib o'tilishi maqsadga muvofiq. Biroq yana shunday madaniyatni anglatuvchi "belbog'"ga sinonim sifatida qo'llanuvchi "qiyig'" leksik birligining esa tarjima matnida izohini berish tarjimada axborotning kodlanishini oldini oladi. Chunki "qiyig'" "belbog'" darajasida ommalashmagan.

Umuman olganda, badiiy matn tarjimasida yuzaga keladigan tarjima muammolarini lingvistik va ekstralingvistik muammolar guruhiga ajratish mumkin. Ular ham o'z o'rnida bir qator kichik guruhlarga bo'linadi.

O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki, aksincha, badiiy tarjimada odatda tarjimonlar uchun qiyinchiliklarni yuzaga keltiruvchi yana bir omil – bu sintaktik omildir. Badiiy tarjimaning sintaktik xususiyatlari asliyat matnidagi so'z birikmasi va gaplarni tarjima tiliga sinaktik muvofiqlikni aks ettirgan holatda o'girilishini nazarda tutamiz. Biroq o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada sintaktik muvofiqlik so'z birikmasi darajasida bo'lishi mumkin, lekin gap darajasida sintaktik moslashuvga erishish qiyin. Chunki ingliz va o'zbek tillari morfologik va struktur tasnifga ko'ra turli xil til oilalariga mansub.

Asliyat matni: O'zim ko'rmadim, – dedi Oftob oyim, – ammo ko'rguchilarning so'zlariga qarag'anda o'xshashsiz ko'rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... Otasining o'zi yigitni yaxshi ko'rib kuyav qilg'an edi (28-b).

I.To'xtasinov tarjimasi: – "I haven't seen him myself yet", – she said, – "but the people who have seen him say: he is very handsome and smart... Actually her father liked him and agreed to make him a son-in-law!" (55 p.)

M.Riz tarjimasini: “I haven't seen him myself,” said Oftob Oyim. “But according to those who have, he is very handsome. I have heard that he is a clever young man. Kumush's father regards him highly; he himself chose him as the groom.” (113 p.)

Romanning mazkur parchasida asarning bosh qahramoni Otabekning tashqi ko‘rinishi uning bo‘lg‘usi qayinonasi Oftob oyim tomonidan qisman tasvirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Bunda “o‘xshashsiz ko‘rkam” hamda “tengsiz aqlli bir yigit” birikmalari portret qiyofasini tasvirlashga xizmat qilmoqda. Struktur jihatdan ushbu so‘z birikmalarning ikkisi ham bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan. Leksik-semantik jihatdan esa “o‘xshashsiz ko‘rkam” birikmasi orqali Otabekning juda ham ko‘rkam, xushbichim ekanligi, “tengsiz aqlli” birikmasi orqali esa qahramonning aqlliligi, donoligi ifodalanmoqda. Ikkala so‘z birikmalarida ham “o‘xshashsiz”, “tengsiz” so‘zlari mubolag‘ali ma’no hosil qilib, bu orqali qahramonning tashqi qiyofasi va aql-idroki boshqalarnikidan ustun qo‘yilmoqda. Ushbu birikmalar I.To‘xtasinovda “very handsome and smart” tarzida, M.Riz variantida esa “very handsome”, “clever” ko‘rinishda tarjima qilingan. Ushbu tarjima variantlarini ma’no jihatidan asliyatga yaqinroq deb hisoblash mumkin. Lekin mazkur birikmalar orqali asliyat matnidagi qo‘shimcha mubolag‘ali ma’no tarjima matnida aks etmaydi. Bundan tashqari ushbu so‘z birikmalari struktur jihatidan ham asliyatga monand emas. Shuning uchun kalkalash tarjima usulidan foydalanib, “o‘xshashsiz ko‘rkam” birikmasini “unique handsome”, “tengsiz aqlli” birikmasi esa “excellent smart” tarzida ingliz tiliga o‘girilsa, asliyat va tarjima tillaridagi semantik muvofiqlik va leksik-semantik ma’no saqlab qolinadi. Demak, badiiy tarjimada sintaktik birlik (so‘z birikmasi misolida)ni tarjima qilish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni bartaraf qilishda kalkalash tarjima usuli samarali bo‘lib, ushbu usul orqali asliyat tilidagi so‘z birikmasi tarjima tiliga alohida-alohida so‘zma-so‘z tarjima qilinadi va asliyatdagi so‘z tartibi tarjima tilida ham saqlanib qolinadi.

Badiiy matnni xorijiy tilga o‘girish tarjimaning boshqa ko‘rinishlaridan yaqqol ajratib turadigan yana bir jihati bu – ma’no masalasidir. Badiiy asarda inson portretini tasvirovchi lisoniy vositalarning leksik-semantik xususiyatlari leksik birliklarning denotativ va konnotativ ma’nolarini tarjima matnida saqlash masalalariga bog‘liq.

Badiiy matn tarjimasida tarjimon asliyat tili grammatikasini yaxshi bilishi, so‘z tanlash borasida katta mahoratga ega bo‘lishi, shuningdek, matn ruhiyatini a’lo darajada his qilishi lozim. Shunga qaramasdan badiiy tarjimada tarjimonni “qopqonga tushiruvchi” ayrim jihatlari mavjudki, ularga jiddiy e’tibor qaratilishi kerak. Badiiy matnlar tarjimasida o‘ziga xos muammolarni yuzaga keltiradigan til vositalari sirasiga badiiy tasviriy vositalar, realiyalar, sotsiolingvistik, lingvokognitiv, lingvopragmatik birliklar bilan ham bog‘liq bo‘lib, mazkur masalalar tarjimondan nafaqat lisoniy, balki nolisoniy mukammal bilimga ega bo‘lishni taqozo qiladi.

Tarjimashunoslikning rivojlanish davrida amaliyotchi va nazariyotchi tarjimon olimlar to‘laqonli tarjima jarayonini amalga oshirish uchun

ekstralingvistik ma'lumot zarur degan fikrga kelishgan. Ekstralingvistik ma'lumot tarjimaga tortilgan matn madaniyatiga oid bilimga ega bo'lishni, sotsiomadaniy va muloqot vaziyatlarini chuqur bilishni taqozo etadi. Tilshunos V.I.Xayrullinning yozishicha, "... Tarjimon uchun faqatgina asliyat tili va tarjima tilini mukammal bilishning o'zi kifoya emas. U yana ushbu tilda so'zlashadigan xalqlar madaniyatini ham bilishi zarur"¹⁶. Yuqorida aytilgan fikr nutqning ekstralingvistik omillari, uning shaklidan qat'iy nazar, u yozma bo'ladimi yoki og'zaki nutq bo'ladimi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Tarjimon ham beshinchi faoliyat hisoblangan tarjimada muloqot ishtirokchisi sifatida ekstralingvistik ma'lumotdan xabardor bo'lishi lozim. Aks holda tarjima orqali qilingan muloqot oxiriga, maqsadiga yetmaydi, tarjimaning sifati past, tushunarsiz va qandaydir g'aliz fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga tarjima transformatsiyalari orqali o'tayotgan va ikki til o'rtasida vositachilik qilayotgan tarjimon muloqot predmeti va vaziyatini tushunmasligi tarjima mazmuniga putur yetkazadi.

Adabiy portret yaratishning ahamiyati obrazning tashqi qiyofasini konkretlashtirishga yordam berish, kitobxon ko'z o'ngida harakatdagi, jonli qahramonni gavdalantirish bilan cheklanmaydi. Mahorat bilan yaratilgan portret tasvirida personajning yoshi, qaysi ijtimoiy tabaqaga xosligi, kasbi, mashg'uloti, madaniy darajasi, xarakteri, odobi, psixikasi hattoki qaysi davrga mansubligi ham o'z ifodasini topadi. Bu esa badiiy matnda qahramon sifatida belgilab olingan xalq yoki bir individning madaniyat bilan bog'liq ekstralingvistik ma'lumotlarni ham taqdim qilishga yordam beradi.

Agar badiiy adabiyotda asar qahramonlarining portretini yaratishda ularning tashqi qiyofasi hamda xarakterini tasvirlash masalasiga urg'u qaratilsa, badiiy tarjimada tashqi qiyofani va qahramonning psixologik qiyofasini tasvirida qo'llanadigan lisoniy vositalarning milliy-madaniy xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy asarlarda qahramon portretini tasvirlashda asar qahramonlarining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini, ya'ni xarakterini ifodalashda turli badiiy tasviriy vositalar qo'llanadi. Ushbu badiiy tasviriy vositalar esa fonetik, leksik, sintaktik stilistik vositalar orqali badiiy matnda namoyon bo'ladi. Ushbu stilistik bo'yoqdorlikni badiiy tarjimada qayta ifodalashda odatda tarjimon uchun bir qator tarjima qiyinchiliklari yuzaga keladi.

Ushbu qiyinchiliklarning asosiy omillaridan biri – turli maqsadlarda yaratilgan qo'shimcha ma'no va uni anglab olish. Shuningdek, muallif tomonidan yaratilgan stilistik ma'noning asliyat va tarjima tillarida o'zaro o'xshatish, qiyoslash, ma'no ko'chish kabi usullar orqali bir-biridan farqlanishi hisoblanadi.

Biz badiiy matnlardagi qahramon portretini tasvirlashda metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalar faol qo'llanadi degan xulosaga keldik.

¹⁶Хайруллин В.И. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты перевода: Автореф. дис... . докт. филол. наук. – М., 1995. – 46 с.

Tarjimashunoslikda stilistik vositalarni tarjima qilish strategiyalari bir qator olimlar¹⁷ tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, badiiy va boshqa uslubdagi matnlar tarjimasida faol qo‘llanadi.

A.Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida asar qahramonlarini statik va dinamik holatini tasvirlashda qo‘llangan stilistik vositalar orasida o‘xshatishlar eng keng qo‘llangan stilistik vositadir.

O‘xshatish lotincha (“similis”, ya’ni “similar – bir xil”, “like-o‘xshash”) “o‘xshashlik” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘xshashlik va analogiya” degan ma’nomalarni anglatadi¹⁸. O‘xshatish ikki obyektни ayrim o‘xshashliklari bilan solishtirish hisoblanadi. Ushbu stilistik vosita ikki narsaning bir yoki ikkita sifatidagi o‘xshashligini ifodalovchi lisoniy birlikdir.

O‘xshatish dunyoni tushunishning eng muhim usullaridan biridir. O‘xshatish stilistik vositasi o‘quvchiga hayot jarayonlari va hodisalari haqida yangi, obyektiv ma’lumot olish uchun dunyo haqiqatidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Adabiyotda o‘xshatishdan foydalanish ham assotsiativ ta’siriga ega. Olamni to‘liqroq idrok etish uchun mavzuni turli assotsiatsiyalar yordamida tasvirlashga yordam beradi. Shu sabablarga ko‘ra, yuzlab yillar davomida o‘xshatish eng ommabop adabiy uslub bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, yetakchi faylasuf va tilshunos olimlarning o‘xshatishning mohiyati va funksiyalari muammosiga katta qiziqish bildirishlariga qaramay, bir qator jihatlar hanzcha o‘rganilmoqda.

“O‘tkan kunlar” romanida o‘xshatishli birikmalar ingliz tiliga tarjimalarida ayrimlari asliyatga monand bo‘lsa, ayrimlari o‘zining tasviriy ifodaliligini yo‘qotgan.

Shuning uchun yuqorida olimlar taklif etgan tarjima strategiyalariga o‘xshatish obyektini tarjima tilidagi obyekt bilan almashtirish va o‘xshatishni metaforaga aylantirib tarjima qilish staretegiyalarni ham qo‘shishni taklif etishimiz mumkin.

Asliyat matni: Go‘yo uxlamoqchi bo‘lg‘an tovuqdek hurpayib oldi (130-bet).

I.To‘xtasinov tarjiması: She didn't greet him, or say anything. She pretended to be sleeping (129).

M.Riz tarjiması: She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt. (240)

Bu yerda asliyat matnida asar qahramonlaridan biri hisoblangan “O‘zbek oyim”ning dinamik holatini tasvirlash uchun o‘xshatish stilistik vositasi qo‘llanmoqda. “Go‘yo uxlamoqchi bo‘lgan tovuqdek hurpaymoq” birikmasi o‘xshatishli birikma bo‘lib, muallifning individual o‘xshatishli birikmasi

¹⁷ Newmark P. The Translation of Metaphor. *The Ubiquity of Metaphor: Metaphor in Language and Thought*. – Amsterdam: John Benjamins, 1985. – pp. 295-326.; Schäffner C. A roof is an umbrella: metaphor, culture and translation. *Identity and Difference – Translation Shaping Culture*. –Bern: Peter Lang AG, 2005. – P. 49-78.; Dobrzynska T. Translating metaphor: problems of meaning. *Journal of Pragmatics*24(6): 1995. – P. 597-603.; Mateo M. The Translation of Irony. *Meta*, 40 (1), 1995. – P. 171 – 178.; Liu, Q, Zhang X. Towards the Translation of Figurative Language. *Canadian Social Science*. Vol.1 No. 1. 2005. – P. 122–126.; Leppihalme, R. Culture bumps: an Empirical approach to the translation of allusions. –Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – P. 84.

¹⁸ <https://www.merriam-webster.com/dictionary/simile#:~:text=Simile%20comes%20from%20the%20Latin,the%20words%20as%20or%20like>.

hisoblanadi. Bizga ma'lumki, o'xshatishlarning ikki turi mavjud bo'lib, ular turg'un va individual o'xshatishli birikmalar. Turg'un birikmalar – avloddan-avlodga o'tib keladigan, tilda frazeologik birlik ko'rinishida mavjud bo'lgan o'xshatishli birikma hisoblanadi. Bunga misol qilib, “tarvuzi qo'ltig'idan tushgandek” turg'un birikmasi misol bo'la oladi. Individual yoki muallif o'xshatishli birikmalar diskurs yoki matnda muallif o'zi tomonidan yaratilgan o'xshatishli birikmalar misol bo'la oladi. Yuqorida tahlilga tortilgan misol aynan individual o'xshatishli birikma hisoblanadi. Ushbu o'xshatishli birikma “arazlamoq”, “kimdandir jahli chiqmoq”, “muloqotni istamaslik” ma'nolarida qo'llangan.

Ushbu birikma ingliz tiliga I.To'xtasinov tomonidan “She pretended to be sleeping (U o'zini uxlayotgandek tutmoq)” tarzida tarjima qilingan bo'lsa, M.Riz ushbu birikmani “She seemed like a hen ruffling her feathers in contempt (U nafratda patlarini hurpaytirib olgan tovuqqa o'xshardi)” ko'rinishida tarjima qilgan. Bu borada M.Riz tarjimasida asliyatga yaqinroq hisoblanadi. Chunki ingliz tilida izohli lug'atlarida “ruffle feathers” iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi “to upset or offend people (odamlardan xafa bo'lmoq)” ma'nosini anglatadi. I.To'xtasinov tarjimasida esa “uxlashga taraddud ko'rmoq” ma'nosi berilgan. Asliyatda ushbu vaziyatda esa Otabekning Marg'ilonda Kumushga uylanib, ko'p vaqtini Marg'ilonda o'tkazayotgan o'g'lidan xafa bo'lgan va shuning natijasida o'g'lidan xafa bo'lib, u bilan gaplashishni istamayotgan O'zbek oyim tasvirlanadi. Mazkur tarjimada M.Riz yuqorida biz taklif etgan o'xshatish obyektini tarjima tilidagi obyekt bilan almashtirish tarjima strategiyasidan foydalanib tarjima qilgan.

Madaniyat – bu murakkab va ko'pqirrali tizim bo'lib, uning markazida konsept tushunchasi turadi. Aynan konsept muayyan xalqning unga tegishli bo'lgan ong, tafakkur va tilni birlashtiradigan jihati hisoblanadi. Milliy-madaniy konsept muayyan xalqning bilim va tajribalarini to'plovchi, uning turmush tarzini aniqlovchi hamda xalqning milliy mentaliteti, milliy xarakteri xususiyatlarini belgilovchi va o'zida mujassam etuvchi tushuncha hisoblanadi. Tillararo muloqotda mazkur bilim alohida ahamiyat kasb etadi, bu holatda konsept madaniyatlar o'rtasida, madaniyatlararo muloqotda vositachi vazifasini o'taydi.

Madaniyatni anglatuvchi milliy-madaniy leksik birliklarni tarjima qilish usullari borasida U.Yo'ldoshev ham o'z tadqiqot ishida to'xtalib o'tgan bo'lib, uning xulosasiga ko'ra, milliy-madaniy leksik birliklarni tarjima qilish usullariga izohlash, transliteratsiya, so'z o'zlashtirish, madaniy ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, eslatmalar, milliy-madaniy leksik birlik ma'nosini aks ettiradigan yangi so'z yaratish, tasviriy tarjima, asliyat tilidagi ifodaning ma'nosini tushuntirish kabilar kiradi. Muallifning taklif etgan tarjima usullari so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqot ishlari ichida aynan shu masala bo'yicha kengroq axborot beradi. Chunki odatda madaniyatni ifodalovchi til birliklar keyingi yillarda keng tadqiq qilinmoqda va ularning kategoriyasi ham kengayib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan ushbu

madaniyatni ifodalovchi lisoniy vositalarni tarjima qilish usullari tarjimada katta ahamiyatga ega. Quyida Otabekning kuyovnavkarlikka borganligidagi tashqi ko‘rinishi tasvirida qo‘llangan lisoniy birliklar va ularning tarjima variantlarini tahlili orqali madaniyatni ifodalovchi lisoniy birliklar tarjimasiga e‘tibor qaratamiz.

Asliyat matni: *Yigirma-o‘ttiz chog‘liq yosh yigitlar — Rahmatning o‘rtoqlari, ular orasida Otabek – kuyav ko‘rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po‘stin, ichida o‘zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog‘ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo‘li bilan tikilgan shohi qiyig‘....(57-bet)¹⁹*

I.To‘xtasinov: *At last, the groom came at five thirty with about twenty or thirty young men – Rahmat’s friends, among them the groom – Otabek with a silversilk turban on his head, black fur coat, his own light blue vest which he had sewn in Shamai, broadcloth pants, leathershoes; he had on his abdomen a wide silk belt (kerchief) which had been embroidered and sewn by Kumush herself...(61)²⁰*

M.Riz: *At last, at about five-thirty, Otabek appeared accompanied by Rahmat's friends, between twenty or thirty young men. He was dressed beautifully. Resting on his head was a silver silk Chalma turban, and on his shoulders hung soft marten furs lined with a coarse-spun fabric. He wore garments ordered especially from Shamai, a sky-blue cloth tunic with matching trousers. His feet displayed supple leather boots and around his slim waist was a silk sash made by the masterful hands of Kumush Bibi.*

Otabekning to‘y marosimdagi tashqi qiyofasini tasvirlovchi ushbu parchada madaniyatni ifodalovchi bir necha lisoniy birliklar qo‘llangan bo‘lib, ular o‘sha davrning to‘y marosimlarida kuyov tomonidan kiyiladigan kiyimlar hisoblanadi. Madaniyatni anglatuvchi kategoriyalardan biri – bu urf-odat va marosim obyektlari hisoblangan, muayyan vazifani bajaruvchi va faqat shu marosim va urf-odatlarda foydalaniladigan obyektlar ham madaniyatni anglatuvchi lisoniy birliklar hisoblanadi. Ushbu parchada ifodalangan simobi shohi salla, osmoni rang movut kamzul hamda shohi qiyig‘ kabilar o‘zida madaniy konnotatsiyani ifodalaydi. “*Simobi shohi salla*” – bu kumushrang shoyidan tikilgan salla hisoblanib, I.To‘xtasinov ushbu *birikmani a silver silk turban*, M.Riz esa *a silver silk Chalma turban* tarzida tarjima qilishgan. Bu borada I.To‘xtasinov varianti asliyatga yaqinroq. Chunki M.Riz tarjimasida “Chalma” leksik birligi ham so‘z qo‘shish usulidan foydalanilgan holatda tarjima aks etadi. Bu tarjimani to‘laqonli deb hisoblay olmasligimizga sabab, chalma bu sallaning Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Hindiston mintaqalarida tarqalgan turidir. Sallaning bu ko‘rinishi Markaziy Osiyoda deyarli uchramaydi. “*Osmoni rang movut kamzul*” birikmasini I.To‘xtasinov “*light blue vest*” tarzida, M.Riz esa “*a sky-blue cloth tunic*” variantida bergan. Bu birkmaning

¹⁹ Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Шарқ, 2009. – В.57.

²⁰Qodiriy, Abdulla. The Days Gone By: Novel. Translators: I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov. – Tashkent: Mashhur-press, 2017. – 61 p.

tarjimasi borasida ham I.To‘xtasinov tarjimasi asliyatga yaqinroq. Chunki kamzulning ingliz tilidagi muqobili “*vest*” so‘ziga to‘g‘ri keladi. M.Riz esa ushbu so‘zni Yevropa va Amerika xalqlarining milliy kiyimlari hisoblangan jaket sifatida “*cloth tunic*” deb tarjima qilgan. Bundan tashqari uning rangini ifodalovchi birikma M.Rizda so‘zma-so‘z tarjima orqali “*a sky-blue*” tarzida berilgan bo‘lsa, I.To‘xtasinovda ushbu birikma “*light blue*”, ya‘ni havorang ma‘nosini ifodalovchi birikma bilan berilgan. Ushbu parchada qo‘llangan “*shohi qiyig‘*” birikmasi esa ipakdan tikilgan belbog‘ ma‘nosini anglatadi. Biroq tarjimonlar ushbu birikmaning tarjimasida ham o‘zbek milliy-madaniyatini to‘laqonli aks ettira olmagan. I.To‘xtasinov ushbu birikmani *a wide silk belt (kerchief) (keng shoyi kamar(ro‘mol))* tarzida tarjima qilgan bo‘lsa, M.Riz ushbu birikmani “*a silk sash (ipak kamar)*” tarzida o‘g‘irgan. Fikrimizcha, ushbu birikmadagi qiyig‘ so‘zini ingliz tiliga tasviriy tarjima qilish orqali yoritib bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki O‘zbekiston mintaqasida, xususan, Farg‘ona vodiysi va Xorazm viloyatida to‘y kuni kuyov va uning navkarlariga belbog‘ yoki qiyig‘ bog‘lash an‘anasi mavjud. Shuning uchun ushbu madaniyatni ifodalovchi lisoniy birlikni ingliz tiliga quyidagi tasviriy tarjima qilsak, asliyatdagi milliy-madaniy ma‘noni tarjima tiliga ham olib o‘tishimiz mumkin: *Qiyig‘ – is piece of material sewed in form quadrangle and is worn around the waist.*

Umuman olganda, badiiy asarda qahramon portretini tasvirlashda madaniyatni ifodalovchi lisoniy birliklar aksariyat hollarda asliyat tili sohiblarining marosimlari, urf-odat va an‘analari, e‘tiqodiy qarashlari, turmush tarzi, ijtimoiy xulq-atvor normalari kabi bir qator komponentlarni o‘zida mujassam etadi. Bu kabi jihatlarni badiiy tarjimada to‘laqonli aks ettirish tarjimon uchun bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Odatda bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun tarjimonlar tasviriy tarjima, eslatmalar, matn oxirida havolalar berish kabi usullardan foydalanishadi. Chunki badiiy tarjimada ham asliyat va tarjima matnlarining shakl va mazmun uyg‘unligi masalasi ham katta rol o‘ynaydi. Bu borada tarjima tahliliga tortilgan M.Rizning “*Gone by Days*”, ya‘ni A.Qodiriyning “*O‘tkan kunlar*” romani bu kabi jihatlarni to‘liqroq yoritib bera olgan.

Biz ham M.Riz tanlangan yo‘lni qo‘llab-quvvatlaymiz. Chunki alohida qo‘shimcha axborot berishni talab etadigan madaniyatni ifodalovchi lisoniy birliklar mavjudki, ularni aynan tarjima oxirida havolalarda berish maqsadga muvofiqdir. Quyida asar qahramonlarini tasvirlashda madaniyatni ifodalovchi lisoniy birliklarning tasviriy tarjima usuli orqali berilishi mumkin bo‘lgan ayrim misollarni taqdim etishni maqsad qildik.

O‘zbek tilidagi portret tasvirlovchi milliy-madaniy so‘zlar va ularning tarjima izohlari

Adras	Adras is a silk-and-cotton-blend fabric. It retains the luster of silk but has a tougher weave to allow for more practical uses
Xotinboz	womanizer: “hotin” means “woman” in Uzbek, and “-bozi” is a stem attached to a noun designating enjoyment beyond moderation of the noun it modifies
Chopon	is a quilted robe worn by many Uzbek males. They range from simple designs showing regional affiliation with cotton cloth and filling to elaborate affairs made of silk or velvet with gold embroidery
Atlas	a wide array of silk production, Margilan being one of the great centers of silk weaving. Atlas is used for korpacha (matrass), womens clothing, and chopon
Khanatlas	is higher grade of Atlas silk. The silk has many origin stories - most notably the one in which a poor weaver created the weave to assuage the khan's desire for his daughter
Chokmon	long wool robe worn by men
Paranji	is a Central Asian paranji is basically a long-armed, thin robe placed over the head with a cloth or horsehair screen, or chachvan, held up by the hands to hide the face
Belbog‘	A traditional embroidered sash stitched by the bride for her husband on their wedding day. They worn over their chopan, or robe, in ceremonial events
Sochpopuk	colored yarn or thread oven at the end of a braid. They could also mean gold ornaments, especially coins, that are woven into a woman’s hair, primarily along the forehead
Boy	indicates wealth
G‘arib	The stem refers to alien, different, other, counter
Saodat	happiness, bliss, peace of mind
Surma	A herb ground into a paste and used for eye makeup. It is considered a sign of beauty to have a unborn

Bu kabi madaniyatni ifodalovchi lisoniy birliklarning tarjimada tasvirlab, izohlab berilishi tarjima tili o‘quvchisiga asliyat matnidagi milliy madaniy o‘ziga xoslikni to‘laqonlik tushuntirib berishga xizmat qiladi.

XULOSA

“Badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarining lingvomadaniy va lingvostilistik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim qilinadi:

1. Badiiy tarjima asliyat matnidagi badiiy-estetik bo‘yoqdorlik, badiiy-tasviriy vositalar, asar qahramonlarining tashqi qiyofasi va ichki dunyosi, asardagi zamon, makon voqeligi kabi masalalarning tarjima matnida ham to‘laqonlik ifodalashni o‘z ichiga oladigan, shuningdek asliyat va tarjima tillarining o‘ziga xosliklaridan

to'liq boxabar bo'lish bilan birgalikda tarjimondan qo'shimcha ijodkorlik qobiliyatini talab qiladigan tarjima ko'rinishidir.

2. Badiiy tarjimaning lingvostilistik xususiyatlari o'zida asliyat va tarjima tillarining funksional uslublari, xususan ushbu tillardagi badiiy uslubning xossalari borasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar va ularning tarjima jarayonidagi ahamiyati, shuningdek, badiiy asarda qo'llanadigan stilistik vositalar va ularning tarjima qilish strategiyalarini namoyon qiladi.

3. Badiiy tarjimaning lingvokulturologik aspektlar badiiy asarni bir tildan boshqa tilga o'girishda tarjimonning asarda voqelangan madaniyatni anglatuvchi turli xil hodisa yoki voqeliklar, bir tilda realiya sifatida talqin qilinadigan leksik birliklarning o'zga tilda reyaliya xususiyatini yo'qotishi yoki o'sha tilda uchramasligi, turli xil badiiy tasviriy vositalar, jumladan, metafora, metonimiya, o'xshatish, mubolag'a kabilar o'ziga xos konseptuallik, ya'ni ma'no ko'chishidagi ikki xalqning qarashlaridagi farqlarda namoyon bo'ladi.

4. Portretning shartli ravishda statik va dinamik turi mavjud bo'lib, statik portret orqali insonning tabiiy ma'lumotlarini beradi: yuz xususiyatlari va shakllari, bo'yi, terining rangi, ko'zlari, sochlari, shuningdek kiyimning tavsifi berilsa, dinamik portret esa qahramonlarning xatti-harakatlarini, jumladan, yuz ifodalari, imo-ishoralar, xulq-atvor, yurish, ovoz tembri va nutqini tashqi tasvirlash usuli hisoblanadi.

5. Portret tavsirlovchi til birliklari murakkab sintaktik birliklarning joylashish tartibi ingliz va o'zbek tillarida o'zaro allomorfik xususiyat kasb etib, sifatlovchi murakkab sintaktik birikmalar ingliz tilida hajmi+yoshi+shakli+rangi+kelib chiqishi+ishlatish sababi + ot ko'rinishiga, o'zbek tilida rang+bo'yi+hajm+yosh+maza-ta'm+psixologik xususiyatlar+ot strukturasi ega hisoblanadi.

6. "O'tkan kunlar" romani va uning ingliz tiliga ikki xil tarjima variantlarining tahlili orqali portretning statik turini tasvirlashda tarjimonlar insonning yuz, soch, qosh, soqol kabilarining xususiyatlarini ifodalovchi lisoniy birliklar tarjimasida muammolarga duch kelgan bo'lsa, qahramonlarining yosh, gavda, ko'z, teri xususiyatlari bildiruvchi til birliklari asliyatga yaqin tarzda tarjima qilingan.

7. Portretning dinamik turi, ya'ni asar qahramonlarining xarakteri, ichki dunyosini tasvirlashda til birliklar o'ziga xos leksik-semantik, stilistik, shuningdek milliy-madaniy ma'noga ega bo'lib, tarjimonlar ushbu ma'nolarning ingliz va o'zbek xalqlarining olamning lisoniy manzarasidagi farqlar sababli tarjimada ayrim g'alizliklar va xatoliklarga yo'l qo'yishgan.

8. Badiiy matn tarjimasida yuzaga keladigan tarjima muammolari tipologiyasi o'zida lingvistik va ekstralingvistik muammolar guruhini mujassam etadi. Lingvistik muammolarni fonetika, morfologiya, grammatika, sintaksis, leksika, stilistika hamda matn bilan bog'liq muammolarga tasniflansa, ekstralingvistik muammolar lingvokulturologik, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, pragmalingvistik, psixolingvistik kabi birliklar badiiy tarjimada qayta ifodalashga aloqador bo'ladi.

9. Badiiy tarjimada portret tasvirlovchi til birliklarining fonetik muammolari transkripsiya va transliteratsiya, sintaktik muammolari kalkalash, umumiyashtirish yoki qismlarga ajratish, leksik-semantik muammolari shakliy, dinamik, funksional, madaniy, tasviriy ekvivalentlik tarjima usullaridan samarali foydalanish orqali bartaraf etiladi.

10. Badiiy tarjimada o'zida milliy madaniylik, madaniy konnotatsiya, milliy-madaniy komponent hamda madaniy ma'noni mujassam etgan portret tasvirlovchi til birliklarini qayta ifodalashda tasviriy, madaniy, funksional ekvivalentlik, so'z o'zlashtirish, ma'noni ochib berish, boshqa so'zlar bilan ifodalash tarjima usullari samarali hisoblanadi.

11. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida portret tasvirlovchi til birliklarida o'xshatish, metafora, sifatlash, metonimiya, mubolag'a kabi stilistik vositalar faol qo'llangan bo'lib, portret tasviridagi stilistik bo'yoqdorlikni badiiy tarjimada qayta ifodalashda a) o'xshatish ma'nosini bayon qilish, o'xshatishni sifat so'z turkumidagi leksik birlikka o'zgartirish, o'xshatishni otli birikmaga o'zgartirish, o'xshatishni metaforaga o'zgartirish; b) metaforani qiyoslanish imkoniyatiga ega bo'lgan ifodani tarjima tilida qayta yaratish; asliyat tilidagi ifodaning tarjima tili madaniyatiga mos tushadigan standart tarjima tili ifodasi bilan almashtirish; metaforik ifodani saqlagan holda o'xshatishdan foydalanib tarjima qilish; metaforani o'xshatish bilan ma'no uyg'unligi orqali tarjima qilish; metaforaning mohiyatini ochib berish; metaforani qisman o'zgartirish; v) mubolag'a, sifatlash, metonimiyalarni kalkalash, transferensiya, ma'noviy tarjima kabi tarjima strategiyalari faol qo'llanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

САМАРКАДСКИЙ ИНСТИТУТ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ЮЛДАШЕВА МАЪМУРА БАХТИЯРОВНА

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЕ
ХАРАКТЕРИСТИКИ ПОРТРЕТНО-ОПИСЫВАЮЩИХ ЯЗЫКОВЫХ
ЕДИНИЦ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2021.4.PhD/Fil2106

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском) размещен на веб-странице Научного совета www.uzswlu.uz и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:

Йулдошев Улугбек Равшанбекович
доктор философии (Phd) по филологическим наукам, доцент

Официальные оппоненты:

Содиқов Зоҳид Яқубжанович
доктор филологических наук, профессор
Аскарлова Шахноза Камолитдиновна
доктор философии (Phd) по филологическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный институт иностранных языков


Защита диссертации состоится “ 30 ” октября 2024 г. “ 10⁰⁰ ” часов на заседании Научного совета по учреждению научных степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йўли, дом 21А. телефон: (+99871) 230-12-91. факс: (+99871) 230-12-92; uzswlu_info@mail.ru)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Государственного университета мировых языков Узбекистана (зарегистрирован за № 1136) (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йўли, дом 21 А. телефон: (+99871) 230-12-91. факс (+99871) 230-12-92).


Автореферат диссертации разослан “ 14 ” октября 2024 года.

Реестр протокола рассылки № 31 от “ 14 ” октября 2024 года




И.М.Тухтаснов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук профессор


Х.Б. Самигова
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор


Ж.А.Якубов
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В эпоху глобализации литература народов мира становится доступной на разных языках, способствуя обмену информацией о культурах и языках. Художественный перевод играет ключевую роль в передаче этой информации преподавателям и студентам других стран. С его помощью изучающие иностранные языки получают доступ к культуре, традициям, ценностям, образу жизни, характеру и другим особенностям народов, отраженным в художественной литературе.

В последние годы в нашей стране художественный перевод, наряду с другими видами перевода, получил широкое распространение. До обретения независимости образцы мировой литературы переводились на узбекский язык, а шедевры узбекской литературы на иностранные языки – через посредников (косвенный перевод). Сегодня же художественный перевод осуществляется непосредственно с оригинала (прямой перевод). В последние годы лучшие образцы узбекской литературы, такие как "Минувшие дни" А. Кадыри, "Скорпион из алтаря", "Навои" Айбека, "Ночь и день" Чулпана, были переведены опытными переводчиками из нашей страны и зарубежья на английский и другие мировые языки. Этот факт требует проведения в нашей стране обширных монографических исследований по актуальным вопросам переводоведения, включая синтаксические, лексико-семантические, стилистические, лингвокультурологические, прагматические и когнитивные аспекты перевода. Сравнение оригинальных и переведенных текстов может стать основой для таких исследований.

В художественной литературе определение лингвокультурологических и лингвостилистических особенностей воссоздания портретных линий и внутренних переживаний героев произведения, доставляющих читателю неповторимое художественно-эстетическое удовольствие и привлекающих читателя за счет использования различных изобразительных средств, а также языковых единиц, используемых при их выражении в художественном переводе, проведение широкого исследования переводческих приемов и приемов, используемых при переводе таких языковых единиц на иностранный язык, исследование вопросов национально-культурных особенностей воссоздания, изображение облика человека в художественном тексте и его отражение в художественном переводе в современной сфере переводоведения считается одним из актуальных вопросов.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации и осуществления задач, указанных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 27 июля 2017 года №ПП-3151 «О мерах по дальнейшему расширению участия отраслей и сфер экономики в повышении качества подготовки специалистов с высшим образованием», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 5

июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Указе Президента Республики Узбекистан от 28 февраля 2023 года № УП-27 «О государственной программе реализации стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы в «Год внимания к человеку и качественному образованию», а также других нормативных правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и техники республики «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировой теории перевода такие исследователи, как Е. Найда, И. Грэм, Р. Белл, П. Ньюмарк, С. Баснет, К. Мальмкер и В. Кевин¹, внесли значительный вклад, разработав теоретические концепции и практические пособия для переводчиков. В своих трудах эти ученые рассмотрели ключевые аспекты перевода, в том числе законы перевода, теории эквивалентности и адекватности, лингвистические и экстралингвистические проблемы устного и письменного перевода. Их работы оказали значительное влияние на развитие современной теории перевода и практики перевода.

Российские ученые также провели ряд исследований в области переводоведения. В частности, Л. С. Бархударов, В. Н. Комиссаров, В. В. Виноградов, А. Д. Швейцер, Н. Гарбовский, Ю. Илюшкина² и др., проводили исследования по решению проблем, связанных с вопросами общих

